
VILOYAT HOKIMI URUSH FAXRIYSI XONADONINI YO'QLADI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, shahar sektorlari rahbarlari hamrohligida Farg'ona shahrining Sohibqiron Temur mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Urmus Bekirova xonadonida bo'ldi.

Navro'z bayrami munosabati bilan faxriy onaxonga viloyat va shahar hokimligining bayram sovg'alari topshirildi.

86 yoshni qarshilagan Urmus Bekirova suhbat davomida urush yillarining qiyinchiliklarini esga olib, Prezidentimiz tomonidan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdan minnatdor ekanini, bugungi tinch-osoyshta va farovon o'tayotgan har bir kunimiz uchun shukronalar aytish lozimligini ta'kidladi. Turli uchrashuvlarda yoshlarga o'tmish xotiralari, hayot tajribasi haqida so'zlab, bugungi dorilomon kunlarning qadriga yetishni, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishni nasihat qilayotganligi haqida gapirib berdi.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Youtube](#)

2021-03-23 21:36:29